

O'SMIRLAR BILAN KASBGA YO'NALTIRISH ISHLARINI OLIB BORISHNING AHAMIYATLI JIHATLARI

Sankibaeva G.S.

*Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Qonliko'l tumani 2-son maktab amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya. *Bu maqolada o'smirlar bilan kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish ishlarining mazmuni, kasbga yo'naltirish ishlarida qo'llaniladigan proektiv, faollashtiruvchi metodikalar, ulardan foydalanishning ahamiyatli jihatlari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *o'smir, kasb, kasbga yo'naltirish, kasb tanlash, proektiv, metodika, kasbiy moslik, kasb-hunar.*

Inson hayotida kasbni to'g'ri tanlash juda muhim masalalardan biri hisoblanadi, kasb mehnat faoliyatining paydo bo'lgan shakllari bo'lib, ularni bajarish uchun inson albatta ma'lum bilimlar va ko'nikmalarga maxsus qobiliyatlar va rivojlangan muhim kasbiy sifatlarga ega bo'lishlari kerak bo'ladi. Shuningdek, har bir yosh kasbga to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi zarur, buning uchun esa kasbga yo'naltirish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilishi juda muhim masala.

Kasbga yo'naltirish – bu bitta kasbni tanlash uchun turli kasblar bilan tanishish masalasidir. Buning uchun avvalombor har bir inson o'z shaxsiy xususiyatlarini tahlil qilishi, mehnat bozorini o'rganishi va to'g'ri keladigan yo'nalishni o'z qobiliyatidan kelib chiqib tanlashi kerak [2].

Bu sohadagi ishlarni yaxshi yo'lga qo'yishda mamlakatimizda ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2021 yil 8 iyundagi PQ-5140-son qarori ijrosini ta'minlash hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga o'qitish, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib kelajakda ularning ta'limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilingan.

Унга кўра умумтаълим муассасалари психологи томонидан ўқувчиларнинг касбга мойиллигини ўрганиш ва уларни касбга йўналтиришда қуйидагиларни амалга ошириш белгилаб қўйилган: 7-синфдан бошлаб ўқувчилар ўртасида интерактив сўровномалар ўтказиб, касб-хунарга бўлган қизиқишини аниқлаш, 8-синфда таълимнинг кейинги босқичларида ўқишни давом эттириш, танлаган касби бўйича

касб-хунарга тайёрлаш марказларида касб ўрганиш учун ўқувчилар ва ота-оналарга тавсиялар бериш ва йўналтириш, 9-синф ўқувчиларининг касбий мойиллиги бўйича ўтказилган психологик таххислар натижалари асосида келгусида аниқ ишчи касблар бўйича касб-хунар мактабларида таълим олиши ёки касб-хунарга тайёрлаш марказларида касбга тайёргарликни давом эттиришлари учун ўқувчиларни ўқув йили давомида муайян касбга йўналтириш ишларини олиб бориш вазифалари белгилаб қўйилган.

Shunday ekan bu masalaga jiddiy yondashish har bir pedagog-psixologning asosiy vazifalaridan biri bo'lishi lozim. Bu muammoni echimini izlashda kasb tanlash, kasbga yo'naltirish ishlari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, kasbga yo'naltirishda qo'llaniladigan samarali metodikalarga murojaat qilamiz. Bunday metodikalardan faollashtiruvchi proektiv metodikalar mazmuni haqida batafsil tushuntirib o'tamiz. Bunday metodikalarning asosiy vazifalari – o'smirlarga o'ziga yoqqan ta'lim yunalishini mustaqil holda belgilash, o'z xohish istaklarini, qiziqishlarini yaxshi bilib olishlari, o'zlariga tashqaridan nazar tashlash va o'z tengdoshlari o'rtasida o'z o'rinlarini bilishi, kelajakdagi kasbi uning uchun nimasi bilan qiziqarli ekanliklarini aniqlashtirib olishga yaqindan yordam beradi.

Kasb tanlayotib kimdir aqliga, kimdir yuragiga quloq soladi. Ma'lum kasbga yo'l olganda odam nimalar bilan to'xnash keladi, ya'ni foydali, muhim, kerakli, murakkob, notanish va tushunarsiz narsalarga duch keladi. Bolalik orzulari va kattalarning maqsad va istaklari, ota-onalarning maslahatlari va oilaviy tarix, birinchi muvaffaqiyat quvonchi, qo'rquv va ko'ngil qolish, qiyinchiliklarni engish tajribasi va b. ko'plab omillar bizning tanlovimizni belgilab beradi.

Kasbga yo'naltirish ishlari o'smirlarga kasblar haqida har xil, turli tuman ma'lumotlarni bilib olishga, kasblarning nufuzini, afzalliklarini va o'z qiziqishlarini tushunib etishlariga yordam beradi.

Kasbga yo'naltirish ishlarining maqsadi – bu o'smirlarga ma'lum, qulay ta'lim yunalishini tanlash nuqtai nazaridan psixologik-pedagogik yordam ko'rsatishdan iborat. Yuqori sinf o'quvchilarining oldilarida kasb tanlash va kelajagini rejalashtirishdek muammo birinchi o'ringa chiqadi. Bu yosh davri bosqichida o'smir o'z imkoniyatlarini tahlil kila olishi, o'zlari mustaqil kasb tanlashi va uning uchun mas'uliyatni o'z bo'yniga olib bilishi kerak.

Chet el tadqiqotchilarining fikrlariga ko'ra kasbiy moslik uchta muhim komponentni o'z ichiga oladi: birinchidan, shaxsiy qadriyatlar, e'tiqodlar, munosabatlar va axloqiy tushunchalar, ikkinchidan – kasbning axloqiy tamiyillari va professional jamoada qabul

qilingan qoidalar, uchinchidan - kasbiy faoliyatni tartibga soluvchi qonunlar va qoidalardan iborat[2].

Dj. Midning fikriga ko`ra o`smirlarda kasbiy moslik, yoki o`zlikni anglash ijtimoiylashuv jarayonida shakllanadi va bu to`g`ridan-to`g`ri rivojlanib borayotgan shaxsning boshqa odamlar bilan munosabatlarining natijasi hisoblanadi [1].

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, kasbga yo`naltirishda faollashtiruvchi va proektiv metodlardan foydalanish o`smirlarga har qanday hayotiy yo`l maqsad qo`yishdan boshlanishini anglab etishlariga yordam beradi. Mutaxassis uchun esa bunday diagnostika kelajak kasbni egallashda dolzarb mavzularni bilib olishga va kasbga yo`naltirish ishlarida metodlarni to`g`ri tanlashiga yaqindan yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андреева Г.М. Социальная психология. — М.: Аспект Пресс, 2006.
2. Гурова Е.В., Голерова О.А. Профориентационная работа в школе. — М.: Просвещение, 2007.